



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No7
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 480 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Umarova H. O'. – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari	16
Doniyorov Salim Musurmonovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	23
Nazarov Odil Omanqulovich	
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni	27
Abirova Umida Nazarovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati	30
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari	34
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati	38
Salimova Dilmira Farxodovna	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar	41
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich	
Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati.....	44
Boltayev Baxtiyor Yunusovich	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar	48
E. Po'latova	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ...	51
Egamova Ravshanoy Surobjonovna	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin?	
Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	55
G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi	60
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons	63
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish	67
Nomozova Dilobar Suyun qizi	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar	72
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories	75
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature	80
Ruzieva Maftuna	
Onlayn va gibril ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	85
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "Metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida)	88
Sharipova Hakima Shavkatovna	
Metacognition and Self-Regulated Learning	92
Turayeva Nazira Ibragimovna	
Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода	95
Меденцева Наталья Петровна	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari	100
Jonibekov Jasur Jonibekovich	



O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	105
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi	
Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi.....	108
Bakayev Najmiddin	
Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida.....	112
Egamova Madina Qobil qizi	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari.....	116
Egamova Shukriya Amanovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari	119
G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi	
Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullarga o'tish	124
G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich	
Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	128
Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....	131
Ikromova Munisa Sheraliyevna	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari	134
Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna	
Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar	138
Jumanova Iroda Shokirjon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	141
Jumayeva Sarvinov Ilhombekovna	
Talabalarda nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirish texnologiyasi	145
Kiyamova Maxbuba Sultanovna	
Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlarini	148
Mamadiyev Jamol	
Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari.....	152
Sharipova Firuza Mehriddinovna	
Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli	155
Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li	
Maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida.....	159
Xallovskaya Maksudaxon Ergashevna	
Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari.....	162
Xatamova Ferangiz Ibodulloevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	166
Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna	
Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzalliklari.....	170
Yodgorova Gulrux Farhodovna	
Совершенствование методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования.....	174
Юлдашев Эргаш Сабинович	
O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	177
Kudenov Temurbek Maxsetbaevich	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida	180
Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna	
Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar	185
Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi	
The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes	189
Meliboyev Zuxriddin Isroil ugli	

O'zbekiston tarixi darslarida pedagogik improvizatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari	192
Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna	
Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi.....	196
Arslanova Umidaxon Komiljon qizi	
Baxtli pedagoglar sirlari yoki kasbdagi subyektiv farovonlik	201
Adilova Zulfiya Djavdatovna	
Ayollarning siyosiy faolligini oshirishda gender kvotalarining o'rni	204
Abdukaxorova O'g'iloy Isroiljon qizi	
The Content of Developing Students' Communicative Culture Through a Bilingual Approach	207
Abdukhaliyeva Feruzakhon Ulugbek kizi	
Maktabgacha yoshdagi nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini shakllantirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati.....	210
Abdullayeva Ugiloy Djurayevna	
Chet tili intellektual va kasbiy rivojlanish kaliti	214
Aripova Sayida Abdullaxatovna	
Raqamli etiket: zamonaviy ta'limda yangi madaniyat talabi	217
Rasuljon Atamuratov	
Raqamli xiyonat: zamonaviy munosabatlar va sodiqlik inqirozi.....	221
Azizova Shodiya Utkur qizi	
Badiiy tarjimada leksik birliklarning lingvomadaniy aspektlari	224
Mardiyeva Maxbuba Shavkatovna	
O'quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturiy platformani pedagogik loyihalash.....	228
Obloqulov Sulaymon Maxmayusuf o'g'li	
Kurashchilar orasida jarohatlarning oldini olish: reabilitatsiya va profilaktik uslublar	232
Ochilova Sarvinoz Salim qizi	
Xalq og'zaki ijodi vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari	236
Oxunova Nozimaxon Mirzag'ulom qizi	
Loyiha asosidagi o'qitish orqali yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish usullari.....	239
Risvayeva Charos Zaydilla qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'yinlar vositasida o'rgatishga qaratilgan mashq va topshiriqlarning samaradorligi.....	242
Toshniyozova Dildora, Meliyeva Nargizaxon	
Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish modeli	245
Tursunova Dilnoza Adhamjon qizi	
Shaxs rivojlanishida pedagogika va psixologiyaning o'rni	248
Umirova Guldon Jamoliddin qizi	
Toshkent shahri havosi ifloslanishining sabablari va oldini olish choralari	251
Ungalov Akmal Navruzovich	
Sun'iy intellekt asosida tuzilgan interaktiv platformalar va ulardan foydalanuvchi tajribasi	254
Xabirova Zulfiya Anvarbekovna	
Talabalar ijtimoiy faollik indeksini rivojlantirishda tyutorlik faoliyatining o'rni va ahamiyati	257
Xamrakulov Jasurbek Muxammadjon o'g'li	
Hozirgi davr pedagogikasida sharqona ta'limning ahamiyati.....	260
Yuldasheva Mastura Islamovna	
Пословицы и поговорки как отражение картины мира	263
Алламбергенова Шахноза Садатдиновна	
Raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirishda mustaqil ta'limning o'rni	268
Abdumannopov Muhammadsahib Muhammadyusuf o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy-kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlar.....	272
Khadicha Mukhamadiyeva Karomatovna	



Zamonaviy didaktik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning analitik va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish.....	277
Mo'minova Gulhayo Turg'unboy qizi	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari	280
O'rinova Nilufar Muhammadovna	
Aholi o'rtasida yoshlarning pedagogik intervensiyalar orqali ilmiy faolligini oshirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish metodikasi.....	286
Raximov Xasanboy Kamoliddin o'g'li	
Buyuk ipak yo'li – yangi geosiyosiy va iqtisodiy aloqalarning tarixiy asosi sifatida	290
Tugalova Madina Erkin qizi	
Ilk maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiya.....	293
Umarova Muyassarxon A'zamjonovna	
Rus tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari	297
Xanova Dilrabo	
Didactic Possibilities of Teaching English in Primary Schools Based on 3D Interactive Technologies	303
Kholiqova Lutfiya Umurzoqovna	
Raqamli dasturiy vositalari asosida organik kimyo fanini o'qitish jarayonlarini loyihalashtirish modeli	306
Ametova Guljamila Elbrusovna	
Talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy asoslarini takomillashtirish	310
Baydjanov Bekzod Xaitboyevich	
Aksiologik yondashuv asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning til o'rganish jarayonidagi ahamiyati.....	314
Choriyeva Feruza Amrullayevna	
Ibrayim Yusupovning "Saksovu" she'rini o'qitish metodikasi	317
Darmonov Allayar Abdilxaq uli	
Innovatsion ta'lim sharoitida talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi....	320
Ergasheva Anbar Shaymardan qizi	
Oiladagi zo'ravonlik: sabablari, oqibatlari va psixologik yondashuvlar	324
Jo'rayeva Kaniza Akbarali qizi	
Darsda talabalar nutqiy qobiliyatini shakllantirish masalalari.....	329
Kamoliddinova Maftuna Xusniddin qizi	
Nodavlat ta'lim tashkilotlari o'quvchilarida kreativlikni shakllantirishni boshqarish	334
Nasriddinov Xasan Baxtiyor o'g'li	
Nutq nuqsoniga ega bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik aspektlar va pedagogik yondashuvlar ...	339
Normatova Maftuna Kengash qizi, Kamolova Gulshoda Jobir qizi	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash diagnostikasining psixologik va pedagogik manbalardagi talqini	346
Saotmuratova Zebo Yuldash qizi	
OTM talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlari.....	350
Tokumbetova Mexribonu Shavkat qizi	
Ma'naviy yetuklik sari: jadid adabiyotining o'rni.....	356
Abdullayev Ro'zimuxammad Akramjon o'g'li	
Nemis tilida derivatsion leksik birliklarning o'qitishning lingvodidaktik asoslari	361
Abduraxmanov Sirojiddin Muminkulovich	
Bo'lajak o'qituvchilarda baholash madaniyatini shakllantirish: adolatli, obyektiv va motivatsiyalovchi baholashga tayyorlash	365
Boymirzayev Farxodjon Raxmatjon o'g'li	
Maktab ta'limida ko'paytirishning qulay usullari.....	371
Ergasheva Shahlo Shoabdullo qizi	
Sensor integratsiya buzilishlari bolaning nutq, harakat va hissiy rivojlanishiga ta'siri	375
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Inson jamiyatdagi ish faoliyatida va psixologiyasida sportning o'rni.....	378
Isoqov Nuriddin Halim o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish	382
Jo'rayeva Nargiza Jamolidinovna	
Обучение дошкольников иностранному языку в различных видах неречевой деятельности	386
Марасулова Доно Нигматуллаевна	

Til o'rgatishda matnning didaktik va kommunikativ ahamiyati	389
Ungarbayeva Ayman Davletbayevna	
Munavvarqori Abdurashidxonov – jadidchilik harakatining ma'rifatparvar yo'lboshchisi	393
Xasanboyeva Ruxshona Nurmatjon qizi	
Dars jarayonida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish	396
Yulchiyeva Shoxsanam	
Особенности использования современных педагогических технологий в преподавании естественных наук в общеобразовательной школе	399
Мажидова Мадина Фархадовна, Мажидов Шерзод Фархадович	
Повышение информационной грамотности и формирование информационной культуры студентов в среде дистанционного обучения.....	403
Р. К. Аюезова	
Воздействие медиа в контексте социального формирования личности.....	407
Хайдарова Гулинур Нурбек кизи	
Теоретические основы развития интеллектуальных способностей студентов	411
Чинкулова Гулмехра Бахроновна	
O'qituvchining o'z darsini tahlil qilishi: tajriba va amaliyot	417
Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li	
Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini rivojlantirishda ma'naviy-axloqiy tadbirlarning o'rni	423
G'aybullayeva Sabohat Ulug'bek qizi, Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining adabiy kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlashning ahamiyati.....	426
Islomova Xafiza Azamatovna	
O'quvchilarda estetik qobiliyatlarni shakllantirishda xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy-metodik salohiyati	430
Kaxarova Gulnora Sa'dullayevna	
Boshqaruv kompetentligi tushunchasining pedagogik psixologik va menejment sohalaridagi ilmiy asoslari va evolyutsiyasi.....	434
Mamatqulova Kimyoxon Abdujalilovna	
Muhandislik ta'limida zamonaviy kompyuter grafikasi vositalari yordamida talabalarning konstruktorlik faoliyatini rivojlantirish.....	438
Muxitdinov Abdurahob Abduvalievich	
Turizm sohasiga oid terminlarni o'qitishda axborot texnologiyasi orqali takomillashtirish	442
Nishanova Hafiza Vafogulovna	
Ilmiy maqola yozish kompetensiyasini rivojlantirishda statistik metodlarni integratsiyalashning ta'limiy samaradorligi	446
Rahimova Indira Quddrat qizi	
Sotsiologiyatning asosiy tushunchalari va konsepsiyalari	451
Rustamova Mohimbonu Maxammadjon qizi	
Pedagogik mahoratni baholashda O'zbekiston va Kanada tajribasining qiyosiy tahlili	455
Tursinova Zoxida Sharabidinovna	
Basketbolning insonning jismoniy va kognitiv rivojlanishiga ta'siri: ilmiy tahlil.....	463
Umarjanov Alimardon Alisher o'g'li	
Talaba qizlar psixik salomatligi xususiyati deviant xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi omil sifatida.....	466
Xasanova Mashxura Abduvalievna	
Ta'lim jarayonida o'yinlardan samarali foydalanish texnologiyasi.....	471
Ortiqova Yulduz Akram qizi	
Innovatsion ta'lim muhitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirish	475
Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna	

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING ADABIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA MATN USTIDA ISHLASHNING AHAMIYATI

Islomova Xafiza Azamatovna

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida adabiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida matn turlarining tutgan o'rni va ta'limiy imkoniyatlari atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqotda matn turlarining pedagogik jarayondagi ahamiyati nafaqat axborot yetkazish vazifasi, balki o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash, obrazli tafakkur, muloqot madaniyati hamda estetik didni shakllantirishdagi roli asoslab berilgan. Maqolada boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun matn bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning bosqichlari, samarali metodik yondashuvlari va mazmuniy-tuzilmaviy tamoyillari yoritilgan. Xususan, badiiy matnlarning obrazli tasvirlar orqali axloqiy va ma'naviy g'oyalarni singdirishi, ilmiy-ommabop matnlarning bolalarning dunyoqarashini kengaytirishi, axborot matnlarining esa tanqidiy tahlil va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni batafsil ochib berilgan.

Kalit so'zlar: adabiy kompetensiya, matn turlari, boshlang'ich ta'lim, metodika, tahliliy faoliyat, o'quv jarayoni.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the role and educational opportunities of text types in the development of literary competencies in future primary education teachers. The study substantiates the role of text types as a pedagogical process not only in conveying information, but also in forming independent and critical thinking, figurative thinking, a culture of communication, and aesthetic taste in students. The article covers the stages of developing skills in working with text for primary education teachers, effective methodological approaches, and content-structural principles. In particular, the role of literary texts instilling moral and spiritual ideas through figurative images, the role of popular science texts in expanding children's worldview, and the role of information texts in developing critical analysis and conclusion skills are explained in detail.

Key words: literary competence, text types, primary education, methodology, analytical activity, educational process.

Аннотация: В статье представлен комплексный анализ роли и образовательных возможностей видов текста в развитии литературных компетенций будущих учителей начального образования. Обоснована роль видов текста как педагогического процесса не только в передаче информации, но и в формировании самостоятельного и критического мышления, образного мышления, культуры общения и эстетического вкуса учащихся. В статье рассматриваются этапы формирования навыков работы с текстом у учителей начального образования, эффективные методические подходы и содержательно-структурные принципы. В частности, подробно раскрывается роль художественных текстов в формировании нравственных и духовных представлений через образные образы, роль научно-популярных текстов в расширении мировоззрения детей, а также роль информационных текстов в развитии навыков критического анализа и умозаключения.

Ключевые слова: литературная компетентность, виды текста, начальное образование, методика, аналитическая деятельность, образовательный процесс.

KIRISH

Boshlang'ich ta'lim tizimida adabiy kompetensiyani shakllantirish pedagogik jarayonning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ta'limning asosiy vazifalaridan biri – o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, badiiy-estetik didni rivojlantirish va matn asosida mantiqiy tahlil qilish ko'nikmalarini mustahkamlashdir. Bu jarayon bevosita bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining tayyorgarligiga bog'liq bo'lib, ularning metodik salohiyati va adabiy matnlar bilan ishlash malakasi ushbu yo'nalishda muhim o'rin egallaydi. Matn turlari – adabiy kompetensiyani shakllantirishda asosiy tayanch vosita sifatida xizmat qiluvchi manbadir.



Chunki matn o'quvchiga obrazli tasvir, voqealar rivoji, personajlar xarakteri va axloqiy g'oyalar orqali hayotiy tushunchalarni taqdim etadi. Shu sababli matnlar turini to'g'ri tanlash va ularni didaktik jarayonga uyg'un kiritish boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi tayyorgarligida muhim metodik vazifa hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jo'rayevning ta'kidlashicha, boshlang'ich ta'lim metodikasi o'qituvchilarning nafaqat dasturiy bilimlarini, balki tarbiyaviy va didaktik kompetensiyalarini shakllantirishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi ^[1]. U o'z asarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan turli metodik yondashuvlarni tizimli ravishda bayon etadi va matn asosida ish olib borishda qadam-baqadam ishlash tamoyillarini ta'kidlaydi. Qurbonovning fikricha, matnshunoslik asoslarini chuqur o'rganish boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga matnning tuzilishi, uslubiy xususiyatlari va mazmuniy qatlamlarini to'g'ri tahlil qilish imkonini beradi ^[2]. Muallif matnni g'oyaviy-estetik jihatdan tushuntirish va uni bolalarga yetkazishda zamonaviy tahliliy usullardan foydalanish zarurligini asoslab bergan. Normurodova va Mirzayevalarning ta'kidlashicha, adabiy o'qish va ona tili metodikasi o'qituvchidan matn mazmunini didaktik jihatdan puxta ishlab chiqishni va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga moslashtirishni talab qiladi ^[3]. Ular o'z tadqiqotida matn tanlash mezonlari va uni dars jarayonida faol metodlar yordamida o'zlashtirish yo'llarini atroflicha tahlil qilgan. Ahmedovanning fikricha, kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida badiiy matnlar o'quvchilarning estetik qiziqishlarini shakllantirish va axloqiy tarbiyasini kuchaytirishning asosiy vositasi hisoblanadi ^[4]. U matn asosida suhbat, savol-javob va ijodiy topshiriqlar tashkil etishning samarali jihatlarini alohida ko'rsatgan.

Rasulovning tadqiqotlarida matn turlarini tanlash va tahlil qilish metodikasi chuqur o'rganilgan bo'lib, u boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi matn bilan ishlash jarayonida strukturaviy va semantik qatlamlarni ajratish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi ^[5]. Muallif matn asosida bolalarning tanqidiy fikrlashini shakllantirishga qaratilgan mashg'ulotlar misollarini keltirgan. Xudoyqulovanning ta'kidlashicha, nutq faoliyatini rivojlantirish metodlari matn bilan ishlashda ustuvor ahamiyat kasb etadi ^[6]. U boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini shakllantirishda turli tipdagi matnlar asosida mashqlar va ko'rgazmali materiallardan foydalanishni tavsiya etadi. Toshpulatovanning asarida adabiy ta'limning zamonaviy metodlari va ularni boshlang'ich ta'limga moslashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan ^[7]. Muallif matn ustida ishlashni interaktiv usullar, kichik guruhli mashg'ulotlar va ijodiy topshiriqlar bilan boyitish zarurligini asoslab bergan. Xolboyevanning fikricha, matn ustida ishlash usullari o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, matn mazmunini qisqacha izohlash va asosiy g'oyani aniqlash kompetensiyasini shakllantirishga bevosita xizmat qiladi ^[8]. Uning tadqiqotida turli matn turlarini birgalikda tahlil qilishning samarali usullari va metodik ko'rsatmalari keng yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari faoliyatida matnlar bilan ishlash ko'nikmasi ikki asosiy yo'nalishda rivojlanadi:

birinchisi – matnni o'zlashtirish, ya'ni uni mazmunan, uslubiy va g'oyaviy jihatdan to'liq tushunish;

ikkinchisi – matndan samarali foydalanib, ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarga erishish.

Shu nuqtayi nazardan matn turlarini quyidagicha umumlashtirish mumkin: badiiy matnlar, ilmiy-ommabop matnlar, axborot matnlari va og'zaki matnlar.

Badiiy matnlar – boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning obrazli tafakkurini rivojlantirishda asosiy vosita sifatida ahamiyatga ega. Ular orqali bola nafaqat voqealar ketma-ketligini tushunadi, balki asar qahramonlarining ruhiy holatini, muayyan vaziyatlarga bo'lgan munosabatini tahlil qiladi. Shu bois, bo'lajak o'qituvchi badiiy matnning kompozitsiyasini, leksik-stilistik xususiyatlarini va g'oyaviy mazmunini chuqur o'zlashtirishi lozim.

Ilmiy-ommabop matnlar esa o'quvchilarga turli fanlarga oid sodda, tushunarli, qiziqarli bilimlar berish imkonini yaratadi. Bu turdagi matnlarni o'qish va tahlil qilish jarayonida bola o'z bilim doirasini kengaytiradi, mavzuga qiziqishi oshadi va mustaqil axborot izlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi shu turdagi matnlarda fakt va fikrni ajratish, muhim jihatlarni tanlab olish va qisqa mazmun chiqarish usullarini yaxshi egallashi zarur.

Axborot matnlari ko'proq ijtimoiy hayot hodisalarini yorituvchi, aniq dalillar va statistik ma'lumotlarga tayanuvchi matnlar bo'lib, bolalarda tanqidiy fikrlashning shakllanishiga xizmat qiladi. Ushbu matnlar asosida o'quvchilarga matndagi ma'lumotning ishonchligini aniqlash, uni baholash va mustaqil xulosa qilish malakalarini shakllantirish imkoniyati yaratiladi.



Bo'lajak o'qituvchilar uchun matnlar bilan ishlash metodikasida quyidagi pedagogik vazifalar muhim ahamiyat kasb etadi:

- matn tarkibini tahlil qilish va unga reja tuzish ko'nikmalarini shakllantirish;
- matndagi asosiy g'oya va ikkilamchi tafsilotlarni farqlash;
- obrazli vositalar va stilistik uslublarni tushuntirishga tayyor bo'lish;
- matn asosida suhbat tashkil etish va bolalarni mustaqil fikrga yo'naltirish.

Shuningdek, matn asosida ijodiy ishlash – hikoya tuzish, voqeani davom ettirish, qahramon nomidan xat yozish kabi topshiriqlar o'quvchilarning tasavvur va tafakkurini rivojlantirishda samarali usul hisoblanadi. Shu jihatdan bo'lajak o'qituvchi matnlar turini to'g'ri tanlash, ularni dars jarayonida moslashtirish va bolalar yoshiga muvofiq shaklda tushuntirish malakalarini puxta egallashi lozim.

Tahliliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, matn turlarini birgalikda va ketma-ket qo'llash, ularning mazmunini qiyosiy tahlil qilish, turli shakldagi savol-javoblar orqali matnga murojaat qilish o'quvchilarning adabiy kompetensiyasini rivojlantirishda eng samarali metodlardan biridir. Zero, matnni faqat o'qish emas, balki uni tushunish, baholash va o'z nuqtayi nazarini asoslab ifoda etish ham bugungi ta'lim jarayonining ustuvor yo'nalishidir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining adabiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida matnlarning turli xil ta'limiy vazifalarni bajarishi chuqur o'rganishga loyiq masalalardan biridir. Chunki matnlar nafaqat o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, balki ularning shaxsiy sifatleri, dunyoqarashi, muloqot malakasi va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning kuchli vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Shu sababdan bo'lajak o'qituvchi matnlarni o'quv jarayonida maqsadli va tizimli qo'llashga tayyor bo'lishi lozim.

Matnlar bilan ishlashni samarali tashkil etish uchun pedagog avvalo ularning o'quvchilar yoshiga mos mazmunini, janr va shakl xususiyatlarini aniqlashi, darsning asosiy didaktik maqsadini belgilashi hamda ta'limiy jarayonning bosqichma-bosqich loyihalashini amalga oshirishi zarur. Shu nuqtayi nazardan matnlar quyidagi asosiy ta'limiy vazifalarni bajaradi:

1. **Bilish vazifasi:** o'quvchida yangi tushuncha va axborot shakllantiradi.
2. **Tarbiyaviy vazifa:** axloqiy va estetik qadriyatlarni singdiradi.
3. **Rivojlantiruvchi vazifa:** nutq madaniyati va mustaqil fikrlashni o'stiradi.

Boshlang'ich ta'limda matnlar turlarini qo'llash bo'yicha tahliliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quv jarayonida bir nechta matn turini uyg'unlashtirish, ularni qiyoslash va asosiy g'oyalarni farqlash ko'nikmasini shakllantirish juda muhimdir. Bunda o'qituvchi tomonidan matnlar bilan ishlashning quyidagi metodlari ko'proq qo'llaniladi: matnni tinglab tahlil qilish, savol-javob, matn asosida suhbat, qayta hikoyalash, ijodiy topshiriqlar va qiyosiy tahlil. Quyida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari tayyorlovida matn turlari bilan ishlashning asosiy ta'limiy imkoniyatlari va ularning ta'sir ko'rsatish darajasi bo'yicha chuqur tahliliy jadval keltirilgan:

1-jadval: Matn turlarining boshlang'ich ta'limdagi o'quv-tarbiyaviy imkoniyatlari

№	Matn turi	Asosiy vazifalari	Rivojlantiruvchi ta'siri	O'quvchilarga ta'sir kuchi (baholash)
1	Badiiy matnlar	Obrazli idrokni rivojlantirish, axloqiy g'oya berish	Tasavvur, estetik did va his-tuyg'uni shakllantiradi	Juda yuqori
2	Ilmiy-ommabop matnlar	Bilim doirasini kengaytirish, qiziqishni oshirish	Fakt va tushunchalarni tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantiradi	Yuqori
3	Axborot matnlari	Yangilik va voqelikni yetkazish, tanqidiy qarash shakllantirish	Tanqidiy tahlil va mustaqil xulosa qilishni rag'batlantiradi	O'rta-yuqori
4	Og'zaki matnlar	Muloqot madaniyatini shakllantirish, eshitish ko'nikmalarini mustahkamlash	Og'zaki nutq va eshituv faoliyatini rivojlantiradi	O'rta

Mazkur jadval tahlilidan ko'rinadiki, badiiy matnlar boshlang'ich ta'lim bosqichida eng kuchli ta'sir kuchiga ega bo'lib, ular bolalarda obrazli idrok, hissiy qamrov va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda yetakchi o'rin tutadi. Shu bilan birga, ilmiy-ommabop matnlar orqali o'quvchilarning faktga asoslangan tushunchalari kengayadi, tanqidiy va analitik fikrlash malakalari shakllanadi. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining matn bilan ishlash kompetensiyasi mazkur matnlarni to'g'ri tanlash va ularni didaktik vazifalarga moslashtirish qobiliyatida



namoyon bo'ladi. Masalan, qiyosiy tahlil metodida bir nechta turdagi matnlar bir darsda taqqoslanadi, o'quvchilar ularning mazmuni, vazifasi va til xususiyatlarini farqlaydi. Bu esa ularning idrok faoliyatini faollashtirib, mustaqil xulosa chiqarishga o'rgatadi. Matn asosida ijodiy faoliyat tashkil etish ham adabiy kompetensiyani rivojlantirishning samarali yo'li hisoblanadi. O'quvchilar matn mazmuni asosida yangi hikoya yaratishi, qahramon sifatida monolog yozishi yoki voqeani boshqa tugash ssenariysida tasvirlashi mumkin. Bu usul o'quvchilarda erkin fikrlash, so'z boyligini oshirish va o'z fikrini ifodalash ko'nikmalarini kuchaytiradi. Shunday qilib, matn turlarining imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish va ularni tizimli qo'llash boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining adabiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim shart bo'lib xizmat qiladi. Bu boradagi izchil metodik tayyorgarlik kelgusida ularning professional faoliyati sifatini belgilab beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan tahlil va kuzatuvlar asosida xulosa qilish mumkinki, boshlang'ich ta'limda adabiy kompetensiyani shakllantirish matn turlari bilan muntazam va tizimli ishlashga bevosita bog'liqdir. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi matnlarning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganib, ularni didaktik vosita sifatida to'g'ri tanlashi, mazmunini bolalarga tushunarli va qiziqarli shaklda yetkazishi pedagogik jarayon sifatini belgilab beradi.

Matnlar asosida olib boriladigan ta'limiy faoliyat bolalarda nafaqat kitobxonlik ko'nikmasini shakllantiradi, balki ularni mustaqil va tanqidiy fikrlashga, ijodiy faoliyatga tayyorlaydi. Shu bois, bo'lajak o'qituvchilarning adabiy kompetensiyasini rivojlantirishda matn turlaridan foydalanish zamonaviy ta'limning muhim sharti va poydevori hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jo'rayev, M. Boshlang'ich ta'lim metodikasi: O'qituvchi uchun qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 320 b.
2. Qurbonov, A. Matnshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 256 b.
3. Normurodova, M., Mirzayeva, M. Boshlang'ich ta'limda ona tili va adabiy o'qish metodikasi. – Toshkent: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2020. – 288 b.
4. Axmedova, Z. O'quvchilarning kitobxonlik kompetensiyasini shakllantirish: Nazariya va amaliyot. – Toshkent: Tafakkur, 2021. – 192 b.
5. Rasulov, U. Matn turlari va ularni tahlil qilish metodikasi. – Samarqand: Zarafshon, 2018. – 214 b.
6. Xudoyqulova, G. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutq faoliyatini rivojlantirish metodlari. – Toshkent: Fan, 2016. – 180 b.
7. Toshpulatova, D. Adabiy ta'lim va zamonaviy metodlar. – Toshkent: Noshir, 2019. – 200 b.
8. Xolboyeva, N. Boshlang'ich ta'limda matn ustida ishlash usullari. – Buxoro: Buxoro davlat universiteti, 2020. – 172 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.